

SANOATNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ibragimov Jaxongir Baxodirovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoatni rivojlantirishda qo'llaniladigan strategiyalar mohiyati ochib berilgan, ularni qo'llash uchun mos bo'lgan holatlar, vaziyatlar aniqlashtirilgan. Har bir strategiyani alohida hamda ularni bir nechtasini bir vaqtda qo'llash hisobiga erishiladigan maqsad va natijalar keltirib o'tilgan. Sanoatni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar, tarmoq strategiyalari, maqsadga yoki texnologiyaga yo'naltirilgan hamda hudud (joy)ga asoslangan strategiyalar tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda, adabiyotlar qismida sanoat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, ushbu strategiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat, strategiya, tarmoqqa yo'naltirilgan strategiya, maqsadga yo'naltirilgan strategiya, texnologiyaga yo'naltirilgan strategiya, hududga (joy)ga yo'naltirilgan strategiya

Аннотация

В данной статье раскрыта сущность стратегий, используемых в промышленном развитии, выяснены случаи и ситуации, подходящие для их применения. Представлены цели и результаты, достигаемые при применении каждой стратегии в отдельности, а также нескольких из них одновременно. Были проанализированы стратегии, применяемые для развития промышленности, в том числе отраслевые стратегии, стратегии ориентированные на цели или технологии, а также стратегии, основанные на территории (местоположении). Наряду с этим, в разделе литературы приведены мнения отечественных и зарубежных ученых, связанных с промышленным развитием. Изложены научные и практические рекомендации по применению этих стратегий.

Ключевые слова: Промышленность, стратегия, отраслевая стратегия, стратегия, ориентированная на миссию, стратегия, ориентированная на технологии, локальная стратегия.

Abstract

In this paper, revealed essence of strategies used in industrial development, clarified the cases and situations suitable for their application. Presented goals and results achieved by applying each strategy separately, as well as several of them simultaneously. The strategies used for industrial development, including sectoral strategies, goal- or technology-oriented strategies, and region-based (location-based) strategies, have been analyzed. In addition, the literature section presents the views of

local and foreign scholars related to industrial development. Set forth scientific and practical recommendations for the application of these strategies.

Keywords: Industry, strategy, sectoral strategy, mission-oriented strategy, technology-focused strategy, place-based strategy.

KIRISH

Sanoatni rivojlanishi iste'mol tovarlari bilan bozorni to'ldirish, daromadlarni oshirish, iqtisodiy o'sishga erishish kabi iqtisodiy muammolar bartaraf etish bilan bir qatorda baror rivojlanish talablarini ta'minlashda ham muhim. Sanoatni modernizatsiyalash orqali resurs sarfini kamaytirish, tabiatga salbiy ta'sirlarni tartiblashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu sanoat taraqqiyotiga erishish har bir davlatning oldida turgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri sifatida qarash lozimligini asoslaydi. Shu sababdan har bir davlat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sanoatni rivojlantirish bo'yicha strategiyalarini ishlab chiqmoqda, tabiiyki bunda o'ziga xos tayanch yo'nalishlar mavjud bo'lib, davlatlar ko'proq shu yo'nalishlar asosida o'zlariga mos bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishga harakat qilishmoqda.

Jumladan, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqсадda “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” belgilanorgan [1]. Ya'ni sanoatning yangi va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish hisobiga takomillashtirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyasini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan. Bu o'z navbatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tendentsiyalarini tadqiq qilish, tarkibiy tuzilishdagi o'zgarishlarning ta'sirini baholash samarali va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga bag'ishlangan mavzulardan tadqiqotlar olib borish va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI


Sanoatni rivojlantirish strategiyalari ko'plab olimlar uchun tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda. Dastlabki tadqiqot natijalariga tayanadigan bo'lsak, yangi sanoat tarmoqlarini proteksionizm siyosati yordamida himoya qilish strategiyasini ko'rish mumkin [2]. Keyingi davrlarda sanoat taraqqiyotini ta'minlash siyosati hamda proteksionizm siyosatini qachon va qanday shaklda qo'llash masalalari bu yo'nalishdagi tadqiqot mavzulari bo'lib hisoblandi [3,4]. Keyingi bosqichda sanoat taraqqiyotini ta'minlash siyosatini ishlab chiqish instrumentlarini takomillashtirish muammolari [5] va globalashuvning keskinlashishi hisobiga tashqi iqtisodiyot ko'lami o'zgarishlari ta'sirini kamaytirish, raqobatga asoslangan muvozanatni ta'minlash [6] masalalari qarab chiqildi. Jahon hamjamiyatiga ekologik xavflarning kuchayishi, yashil iqtisodiyotni shakllantirish kabilar sanoatni rivojlantirishda uning atrof muhitga ta'sirini kamaytirishni muhim masala sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi [7,8,9]. Natijada, maqsad, tarmoq, texnologiya va hududni hisobga olgan holda turli

strategiyalar ishlab chiqildi [10,11]. Chunki yashil sanoat siyosati soha rivojini ta'minlashda qator mezonlarga rioya qilish talabini qo'ymoqda va uni kuchaytirib bormoqda [12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholini turli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirish sanoatni rivojlantirishni talab qiladi, biroq bugungi kun talablari sanoatni rivojini ta'minlashda qator talablarga rioya qilish lozim. Xususan, sanoat mahsulotlarini resurs sig'imini kamaytirish, mahsulot miqdorini oshirish, ishlab chiqarish jarayonini salbiy oqibatlarini bartaraf etish kabilar shular jumlasidan hisoblanadi. Sanoatni rivojlantirish hisobiga erishilishi kutilayotgan maqsad va qo'yilgan vazifalarni bajarilishi uni aniq yo'nalishlarda amalga oshirishni talab qiladi. Bu har bir davlat yoki mintaqaga mavjud salohiyatini hamda kutilayotgan natijalarni hisobga olgan holda sanoatni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.

Davlatlar sanoatni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda avvalo qo'llab-quvvatlash lozim bo'lgan quyi bo'g'inlarga e'tibor qaratishadi. Amaliyotda buni amalga oshirishning bir qator yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularni to'rtta strategiya doirasida qarab chiqamiz. Bular: tarmoq strategiyalari, maqsadga yoki texnologiyaga yo'naltirilgan, hudud (joy)ga asoslangan strategiyalar. Ushbu startegiyalarning o'ziga xos jihatlari hamda umumiy jihatlarni ochib berish hamda ularni alohida va birgalikda qo'llash natijalarini tushuntirish masalasiga to'xtalib o'tamiz (1-rasm).



1-rasm. Sanoatni rivojlantirish bo'yicha mavjud strategiyalar va ularni qo'llashdagi yondash strategiyalar va natijalari¹

¹ Muallif ishlanmasi

Mazkur strategiyalarni qo'llashda qo'yiladigan maqsad va olinadigan natijalarni hisobga olgan holda uni Xorazm viloyati imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirildi. Ushbu strategiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklari hamda foydalanish imkoniyatlarini qator qator vaziyatlarida qaraib chiqildi, buning uchun mezonlar shakllantirib, har bir mezon bo'yicha strategiyaning ahamiyatini baholash masalasi umumlashtirilgan holda keltirib o'tilgan (1-jadval).

Amalga oshirish jarayonida o'rganishda vaqt o'tishi bilan o'rganib, faoliyat takomillashtirib borishi imkoniyati yaratiladi. Bu ishlab chiqarishning jarayonidagi tajribalarni oshishi va unumdorlikka ijobiy ta'sir qiladi. Biroq, ilmiy adabiyotlarda shubha bilan qarash holatlari ham mavjud bo'lib mualliflar davlatning kutilayotgan foyda normasini baholashini xususiy sektordagiga nisbatan yaxshi bo'lishini tanqid ostiga olishadi [2,3]. Buning sababi sifatida kapital bozoridagi nomukammalliklar yoki noaniqliklarni keltirib o'tishadi [4]. Boshqa tomondan ushbu fikrlarga qarama qarshi faktlarni qo'llab-quvvatlovchi holatlarni va mavjudligi, ularni teskari natija berishini ko'rsatadi [5].

1-jadval

Sanoatni rivojlantirish strategiyalari va ulardan foydalanish bo'yicha o'ziga xosliklar¹

	Tarmoqqa yo'naltirilgan strategiyalar	Maqsadga yo'naltirilgan strategiyalar	Texnologiyaga yo'naltirilgan strategiyalar	Hudud(joy)ga yo'naltirilgan strategiyalar
Amalga oshirish jarayonida o'rganish	x		xx	
Tashqi iqtisodiyot ko'lami	x		xx	
Informatsion tashqi samaralar	x			
Raqobatni shakllantirish	x			
Qiymat zanjirida yuqori tarmoqlar	x		xx	
Muvofiqlashtirishdagi muvaffaqiyatsizliklar	x	xx	x	
Ijtimoiy naflar		xx		
Davlat investitsiyalaridan foydalanish		x		
Normativ noaniqlik yoki nomukammal majburiyat		x		
Marshallning tashqi ta'siri				X

Bu yerda: x – bog'liq ekanligini ifodalashi, xx- bog'liqlik darajasi kuchliligini ko'rsatadi

Tashqi iqtisodiyot ko'lamida korxonadagi unumdorlikni tarmoq darajasiga mutanosib holda oshishini nazarda tutadi. Bu tarmoqni milliy darajadagi va undan kengroq miqyosdagi taraqqiyot darajasiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Natijada, davlat va xususiy investitsiyalardagi daromadlarda farq vujudga keladi. Bundan ko'rinadiki tarmoqning ko'lamini kengaytirish va samaradorlikni oshirish subsidiyalashga zaruratni keltirib chiqaradi [6]. Yuqorida keltirilgan mantiqiy fikrni amaliy tatbiqini amalga oshirish jarayonida o'rganish strategiyasining statik ko'rinishi ekanligini

¹ Muallif ishlanmasi

tasdiqlaydi. Amalga oshirish jarayonidagi o'rganish samaradorlikni ishlab chiqarishdagi kumulyativ yig'indi sifatidagi oshishini ta'minlasa, tashqi iqtisodiyot ko'lami joriy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha samaradorlik o'zgarishini ta'minlaydi. Bundan ko'rinadiki ichki daromadlar qaytimi darajasi korxona qaroriga ta'sir ko'rsatmaydi va davlat subsidiyasiga zarurat qoldirmaydi.

Informatsion tashqi samaralar amalga oshirish jarayonida o'rganishga yaqin bo'lib, bunda ham dastlabki qo'llagan subyektlar keyingilari uchun xavf-daromad muammosini bartaraf etishga yordam beradi. Faqat amalga oshirish jarayonidagi dastlabki investorlar keyingilar uchun kutilayotgan daromad darajasini oshirish imkoniyatini yaratasa, informatsion tashqi samaralar sharoitida investitsiya xavfi yoki noaniqligini asoslab beradi.

Raqobatni shakllantirish asosan monopolist xorijiy korxona bo'lgan va mahalliy hukumat sohada milliy mahsulotlarini yaratmoqchi bo'lganda samarali usullardan hisoblanadi. Airbusning yaratilishini mazkur yo'nalishdagi eng samarali muvaffaqiyat sifatida talqin qilinsada, ko'pchilik holatlarda raqamli platformalarda keng qo'llaniladi. Biroq, ushbu holatda farovonlikni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim, chunki bu doimiy xarajatlarni takrorlanishiga olib kelib, sanoatning umumiy samaradorligini pasaytirishi mumkin [7].

Qo'shilgan qiymat zanjiridagi yuqori tarmoqlarning mahsuldorligi quyi tarmoqlar faoliyat natijalarini belgilaydi va ushbu tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash masalasiga e'tibor qaratishni talab qiladi. Janubiy Koreya 1970 yillarda sanoat taraqqiyotini ta'minlashda bu usuldan samarali foydalanganligi va Xitoyning bu usulni bugun qo'llayotganligi buni tasdiqlaydi [8].

Ayrim loyihalarni qator yo'nalishlarda amalga oshirilishi gorizontal va vertikal muvofiqlikni ta'minlanishni talab qiladi. Gorizontal muvofiqlik mahsulot ishlabchiqarishning parallel bosqichlarida tenglikni ta'minlashni talab qilsa, mahsulot qo'shilgan qiymat zanjirining qator bosqichlaridan o'tishi sharoitida vertikal muvofiqlashtirishga zarurat seziladi. Bunday sanoat sohalarda muvofiqlashtirish bilan bog'liq muammolarning kuzatilishi soha taraqqiyotini ortga suradi, shu sababli davlat va manfaatdor tomonlar o'zaro hamkorlikda bunga yechim topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maqsadga yo'naltirilgan strategiyalar an'anaviy bilimlar tarqalishini tezlashtirishga va rivojlantirishga xizmta qilgani holda milliy xavfsizlik va barqaror o'sishdagi muammolarni bartaraf etadi va ijtimoiy nafni shakllantiradi [9]. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki maqsadga yo'naltirilgan siyosatda innovatsiyalar bilan bog'liq bozor muvaffaqiyatsizliklari e'tibordan chetda qoladi [10,11]. Ushbu strategiya bo'yicha maqsad turli sohalarga bir vaqtda investitsiyalar kiritish talab qilingan vaziyatlarda muvofiqlashtirishdagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish talab qilinadi [12].

Texnologiyalarga yo'naltirilgan strategiyalar asosan innovatsiyalar, ularni tarqalishi va qo'llanishi asosida samaradorlikka erishishga qaratiladi. Maqsadga yo'naltirilgan strategiyalardagi kabi texnologiyaga yo'naltirilgan strategiyalar ham

tabiatan ko'p tarmoqli bo'lib, mahsulotni ishlab chiqaruvchi sektorlarga maqsadli aralashuvni ham qamrab olishi mumkin.

Hudud(joy)ga yo'naltirilgan strategiyalar asosan mintaqalar kesimidagi iqtisodiy faollik darajasini tenglashtirishga, mavjud salohiyatidan samarali foydalanishiga yordam beradi. Bunda nisbiy ustunlikka ega tarmoqlarni aniqlash va ularga texnologik taraqqiyotni ta'minlash, ixtisoslashuvini qo'llab- quvvatlash orqali samaradorlikni oshirishga e'tibor qaratiladi. Bunda chekli nafililik nazariyasi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu strategiyada tadqiqot institutlari, yirik sanoat korxonalari, startup loyihalari, kichik va o'rta korxonalar hamkorligini ta'minlovchi, mahalliyashtirilgan innovatsiyalarni keng tarqalishida qo'l keladigan innovatsion klasterlarni yaratish va shu asosda global bilimlar bilan uyg'unlashishini ta'minlovchi klaster siyosati o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirib o'tilgan strategiyalar va ularni amaliyotda qo'llashni qiyosiy tahlili har bir strategiyani ma'lum bir shart-sharoitlar ta'minlangandagina qo'llash samarali hisoblanadi. Shu sababdan strategiyani tanlashdan oldin mavjud sharoitni va imkoniyatlarni o'rganib chiqish, vazifalarni aniq belgilash talab qilinadi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi hamda mavjud muammoga mos bo'lgan strategiya tanlanmagan holatda strategiya samaradorligini ta'minlash uchun yaratilgan sharoitlar o'z ahamiyatini yo'qotgan. Bundan tashqari qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bir yoki bir qator strategiyalardan bir vaqtda foydalanish mumkin bo'ladi.

Sanoatni rivojlantirish bo'yicha mavjud strategiyalar va ularni qo'llashdagi yondash strategiyalar va kutilayotgan natijalar bo'yicha keltirilgan chizmadan ham ko'rish mumkinki, olinishi kutilayotgan natijalar strategiyani to'g'ri tanlanganligiga bog'liq hisoblanadi. Strategiyalarni noto'g'ri tanlanishini kutilgan natijaga to'laqonli erishi imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Baldwin, R. (1969), "The Case against Infant-Industry Tariff Protection", Journal of Political Economy, Vol. 77/3, pp. 295-305.

3. Pack H., K. Saggi (2006), "Is There a Case for Industrial Policy? A Critical Survey", The World Bank Research Observer, Vol. 21/2, pp. 267-297, <https://doi.org/10.1093/wbro/lkl001>.

4. Melitz, M. (2005), "When and how should infant industries be protected?", Journal of International Economics, Vol. 66/1, pp. 177-196, <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2004.07.001>.

5. Criscuolo, C. et al. (2022), “Are industrial policy instruments effective? A review of the evidence in OECD countries”, OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 128, OECD Publishing, Paris.
6. Chipman, J. (1970), “External Economies of Scale and Competitive Equilibrium”, The Quarterly Journal of Economics, Vol. 84/3, p. 347, <https://doi.org/10.2307/1879425>.
7. Neven, D., P. Seabright and G. Grossman (1995), “European Industrial Policy: The Airbus Case”, Economic Policy, Vol. 10/21, p. 313, <https://doi.org/10.2307/1344592>.
8. Liu, E. (2019), “Industrial Policies in Production Networks”, The Quarterly Journal of Economics, Vol. 134/4, pp. 1883-1948, <https://doi.org/10.1093/qje/qjz024>.
9. Rodrik, D. (2014), “Green industrial policy”, Oxford Review of Economic Policy, Vol. 30/3, pp. 469-491, <https://doi.org/10.1093/oxrep/gru025>.
10. Mazzucato M. (2018), “Mission-oriented innovation policies: challenges and opportunities”, Industrial and Corporate Change, Vol. 27/5, pp. 803-815, <https://doi.org/10.1093/icc/dty034>;
11. Foray D., Mowery D., Nelson R. (2012), “Public R&D and social challenges: What lessons from mission R&D programs?”, Research Policy, Vol. 41/10, pp. 1697-1702, <https://doi.org/10.1016/j.respol.2012.07.011>.
12. Altenburg, T. and D. Rodrik (2017), Green industrial policy: Accelerating structural change towards wealthy green economies, German Development Institute.